

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

manbalar asosidagi tahlili.....	347
G.Sh.Shaydullayeva	
Turon sivilizatsiyasi aholisining ijtimoiy holatiga madaniy aloqalarning ta'siri.....	353
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari.....	358
X.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	362
N.R.G'ulomova	
Ziyorat turizmi: uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	367
Sh.F.Allanazarov	
Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili.....	380
A.T.Toshmamatov	
O'zbek va ukrain xalqlari madaniy uyg'unligining tarixiy namoyasi: Xasanovlar oilasi misolida	380
Sh.A.Mirzamidinova	
Ashurali Zohiriyning shaxsiyati, faoliyati va merosi.....	384
O.B.Abdunosirova	
Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari	390
M.X.Muzaffarov	
Vengriya va Turkiy dunyo: tarixiy bog'lanish va aloqalari.....	393
S.F.Norbekov	
Sharqiy Slavyan diasporasining Turkistondagi madaniy va ma'rifiy hayoti (1918–1924 yy.).....	398

ILMIY AXBOROT

I.T.Boltaboev	
Ijtimoiy adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy talqinlari.....	409
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1945–1980 yillarda sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanishi	413
N.M.Axmadiyev	
Yangi O'zbekistonda kelesajak avlod tarbiyasiga gerontologik moyiyatini yanada rivojlantirish.....	417
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi hamda globallashuv sharoitida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi	420
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiy ta'limotida borliq nazariyasi.	425
Sh.T.Abbosova	
Buyuk ipak yo'lida ilm-fan va madaniy muloqot rivoji.....	431
Sh.N.Niyozova	
Vatanparvarlikning ma'naviy-falsafiy mohiyati va shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi.....	434
Sh.X.Matyobubova	
Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning Yangi O'zbekistonga ta'siri.....	438
R.D.Dehqonov	
Teatr san'atining yoshlar ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri	442
Z.T.Tursunboyev	
O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda konformizm omilining ahamiyati	446
R.D.Dehqonov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'atining o'rni.....	451
Z.T.Tursunboyev	
“Tazyiq va zo'ravonlik” tushunchalari: turlari va oilada oldini olish mexanizmlari	455
N.T.Xolikov	
Globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	459
Sh.A.Rasulova	
Harakatlar strtegiyasidan Yangi O'zbekistongacha: xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlanishi	462
A.A.Aloxunov	



UO'K: 1:159.9(100)

**ONGNI BOSHQARISH FALSAFASI HAMDA GLOBALLASHUV SHAROITIDA INSON
TAFAKKURI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI****ФИЛОСОФИЯ УПРАВЛЕНИЯ СОЗНАНИЕМ И СОВРЕМЕННАЯ КОНЦЕПЦИЯ
ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОСТИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ
ГЛОБАЛИЗАЦИИ****THE PHILOSOPHY OF MIND MANAGEMENT AND THE MODERN CONCEPT OF ENSURING
THE STABILITY OF HUMAN THINKING IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION****Karimov Bozarqul Xuddayberdiyevich** 

Buxoro davlat texnika universiteti "Ijtimoiy fanlar va jismoni madaniyat" kafedrasida dotsenti

Annatotsiya

Ushbu ilmiy ishda ongni boshqarish falsafasi va globallashuv jarayonlarida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi falsafiy, ijtimoiy va gnoseologik jihatdan tahlil qilinadi. Mavzuda inson ongining tashqi axborot oqimlari, texnologik bosim, media manipulyatsiya va raqamli transformatsiya sharoitida qanday o'zgarishi, shuningdek tafakkur mustaqilligini saqlab qolishning nazariy-uslubiy mexanizmlari yoritiladi.

Аннотация

В данной работе философски и социально-гносеологически анализируется проблема управления сознанием и современная концепция обеспечения устойчивости человеческого мышления в условиях глобализации. Исследование раскрывает трансформацию сознания под воздействием информационных потоков, цифровых технологий, медийных манипуляций и глобальных коммуникаций, а также определяет теоретико-методологические механизмы сохранения независимости и критичности мышления.

Abstract

This study provides a philosophical and socio-gnoseological analysis of mind management and the modern concept of ensuring the stability of human thinking in the context of globalization. It examines how human consciousness is transformed under the influence of information flows, digital technologies, media manipulation, and global communication networks. The research identifies theoretical and methodological mechanisms that help preserve independent and critical thinking.

Kalit so'z: Ongni boshqarish, globallashuv, tafakkur barqarorligi, ong falsafasi, axborot xavfsizligi, intellektual immunitet, ma'naviy barqarorlik, raqamli ong, media makon.

Ключевые слова: Управление сознанием, глобализация, устойчивость мышления, философия сознания, информационная безопасность, интеллектуальный иммунитет, духовная устойчивость, цифровое сознание, медиапространство.

Key words: Mind management, globalization, cognitive stability, philosophy of consciousness, information security, intellectual immunity, spiritual resilience, digital consciousness, media space.

KIRISH

XXI asrning globallashuv jarayonlari inson ongiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan eng kuchli omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborot oqimlarining keskin tezlashuvi, raqamli makonning cheksiz imkoniyatlari va madaniy-ma'naviy tizimlarning jadal transformatsiyasi shaxs tafakkuriga, qadriyatlar tizimiga hamda ijtimoiy xulq-atvor me'yorlariga yangi talablarga javoban shakllanayotgan murakkab intellektual muhitni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda ongni boshqarish falsafasi - inson tafakkuri barqarorligini, ma'naviy immunitetini va mustaqil fikr yuritish qobiliyatini saqlab qolishning zamonaviy nazariy asoslaridan biriga aylanib bormoqda.

Mazkur mavzu dolzarbligi bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, axborot xurujlari va manipulyativ diskurslar ko'paygani sari shaxs ongiga tashqi ta'sir mexanizmlarini tadqiq etish zarurati ortmoqda. Ikkinchidan, global raqobat sharoitida milliy-ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash, tafakkur mustaqilligini ta'minlash ijtimoiy barqarorlikning asosiy omiliga aylanmoqda. Uchinchidan, zamonaviy falsafa, kognitiv fanlar, neyropsixologiya va axborot texnologiyalari chorrahasida ongni boshqarishning yangi nazariyalari shakllanmoqda, bu esa

mavzuning ilmiy yangiligini belgilaydi. Shu bois, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - ongni boshqarish falsafasining nazariy asoslarini tahlil qilish, globallashuv jarayonlarining inson tafakkuri barqarorligiga ta'sirini o'rganish hamda bu borada zamonaviy konseptual yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat. Ishning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, u jamiyatda intellektual xavfsizlikni ta'minlash, ma'naviy immunitetni mustahkamlash va shaxs ongining mustaqilligini qo'llab-quvvatlash uchun nazariy asos yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Qadimgi zamonlardayoq ong, tafakkur, ruh haqidagi qarashlar mashhur faylasuflar Suqrot, Aristotel, Platon qarashlarida shakllana boshlagan. Demak, birlamchi psixologik qarashlar falsafa negizida paydo bo'lgan edi. Allomalar ular asarlaridan ta'sirlanib, insonning ruhiyatiga ham e'tibor qaratganlar. Shuning uchun ham psixologiyani haqli ravishda falsafa negizida vujudga kelgan fanlar qatoriga qo'shish mumkin. Falsafa va psixologiyaning bir-birini to'ldirishini ong va ruhiyat masalasini har tomonlama yoritishda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shu bilan birga, yana bir e'tiborli jihati shuki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlab topishda falsafa va psixologiyaning o'zaro hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu esa yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi dolzarb bo'lib turgan tarixiy davrda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ongni boshqarish orqali odamni har qanday xatti-harakatga undash mumkin. Psixolog va sotsiolog olimlarning ta'kidlashicha, manipulyatsiya - psixologik ta'sir turlaridan biri hisoblanib, undan kishini ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishga bilvosita undash orqali bir tomonlama yutuqqa erishish maqsadida foydalaniladi. Manipulyatsiya lotinchadan olingan bo'lib, qo'l harakati degan ma'noni bildiradi. Shu bilan birga manipulyatsiya - qo'l mashqi, shu jumladan, qo'l mahoratiga tayangan fokus namoyish qilish; maxinatsiya, aldov, tovlamachilik, qalloblik orqali g'arazli maqsadga erishish; odamda ma'lum motivatsion holatlarning (hissiyotlar, stereotiplar) faollashuviga olib keladigan kommunikatsion ta'sir.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bugungi globallashuv davri insoniyat hayotining barcha jabhalarida mislsiz o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Axborot tizimlarining keskin kengayishi, internet texnologiyalarining ommalashuvi, uyali aloqa, radio va televideniyaning planetar miqyosda tarqalishi natijasida dunyo yagona axborot makoniga aylandi. Shu bilan birga xalqlar, mintaqalar va qit'alar o'rtasidagi aloqalar keskin jadallashib, insoniyatning yutuqlari ham, muammolari ham global tus olmoqda. Mazkur jarayonlar zamonaviy inson ongiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgani, uning fikrlash tarzini, dunyoqarashini va qadriyatlar tizimini shakllantirishda hal qiluvchi omilga aylanayotgani borgan sari ayon bo'lmoqda.

Afsuski, globallashuvning ayrim salbiy oqibatlari sifatida madaniy gegemoniyaning kuchayishi, ma'naviy makonlarni biryozlama ta'sir ostiga olishga qaratilgan ko'zga ko'rinmas mexanizmlarning paydo bo'layotganini ko'rish mumkin. Bunday jarayonlarning eng xavfli ko'rinishlaridan biri - inson ongini boshqarish, ya'ni yashirin ta'sir va manipulyatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishidir. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda manipulyatsiya onga maqsadli tarzda ta'sir ko'rsatish, shaxsni ob'ekt sifatida ko'rib, uning fikrini, hissiyotlarini, qarorlarini ongli ravishda boshqarishga qaratilgan jarayon sifatida izohlanadi. Bu jarayonning mohiyati - insonning o'z fikri va pozitsiyasini tanlash imkoniyatini zaiflashtirib, uni tashqi g'oyalarning passiv iste'molchisi holatiga keltirishdir.

Manipulyatsiya inson fe'l-atvorini boshqarishning nozik, hatto sezilmas mexanizmlariga tayangan bo'lib, ko'pincha ommaning ruhiy holati, kayfiyati va intilishlarini ong osti darajasida yo'naltirishni ko'zlaydi. Ilmiy tadqiqotlar, jumladan Gerbert Franken, Robert Chaldini kabi olimlarning ishlari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy manipulyativ texnologiyalar inson tafakkurining o'ziga xos zaif nuqtalaridan foydalanadi: ishonuvchanlik, emotsional ta'sirga beriluvchanlik, tanqidiy fikrlashning sustligi va axborotning haddan tashqari ko'pligi shular jumlasidandir.

Ongni boshqarishning xavfli jihati shundaki, u shaxsning ichki yaxlitligini parchalab, uning ma'naviy immunitetini susaytiradi, irodasining zaiflashishiga va tashqi ta'sirga tez berilib ketishiga olib keladi. Bu jarayonda manipulyatorlar o'z sohalarida puxta bilimga ega bo'lgan mutaxassislar bo'lib, zamonaviy texnika, kommunikatsiya vositalari va psixologik uslublardan ustalik bilan foydalanadilar. Ayniqsa, yoshlar auditoriyasining qiziqishlari, intilishlari va ehtiyojlarini chuqur o'rgangan holda, ularga mos yo'naltirilgan manipulyativ axborotlar ishlab chiqiladi.

Shu nuqtai nazardan, globallashuv sharoitida ongni boshqarish hodisasini falsafiy jihatdan o'rganish - inson tafakkuri barqarorligini, ma'naviy mustaqilligini va intellektual immunitetini ta'minlashning asosiy shartidir. Ongni boshqarish falsafasining zamonaviy konsepsiyasi shaxs ongiga ko'rsatilayotgan axborot ta'sirlarini chuqur tahlil qilish, manipulyativ mexanizmlarning mohiyatini ochib berish, insonni mustaqil fikrlashga undovchi intellektual va ma'naviy himoya tizimini shakllantirishni nazarda tutadi.

Demak, axborot xurujlari keskin kuchaygan hozirgi sharoitda ongni boshqarish falsafasining dolzarbligi beqiyosdir. Ushbu tamoyillar asosida shakllanayotgan konsepsiyalar insonni ma'naviy bo'shliqqa tortuvchi manipulyativ ta'sirlardan himoya qilish, uning tafakkur mustaqilligini saqlab qolish va barqaror intellektual rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi zamonda inson ongiga ko'rsatilayotgan ta'sirlar tobora murakkablashib, ularning xarakteri yanada ko'lamli keng axborot oqimlari orqali amalga oshmoqda. Ayniqsa, G'arb ilm-falsafasida ong manipulatsiyasi masalasi uzoq yillar davomida chuqur tahlil qilinib kelgan bo'lib, "ommaviy madaniyat"ning shakllanishi mazkur jarayonning asosiy manbalaridan biri sifatida talqin etiladi. Ispan faylasufi Xose Ortega-i-Gassetning fikrlariga murojaat etilsa, u ommaviy inson tabiatining fikrlash quvvatidan mahrumligi, nazariy mulohaza yurita olmasligi jamiyatda mustaqil qarorlar qabul qilish jarayoniga jiddiy to'sqinlik qilishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ommaviy inson ongiga tashqi fikrlar zo'rma-zo'raki singdiriladi va bu jarayon ijtimoiy boshqaruvning muhim omiliga aylanadi. Shu bois u "ijtimoiy fikrni shakllantirish"ni tarixiy jarayonning muqarrar hodisasi sifatida baholaydi.

Ortega-i-Gassetning ushbu qarashlari bugungi globallashuv davrida yanada dolzarbroq ko'rinishga ega bo'lib, zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida fikrni boshqarish mexanizmlari keskin takomillashgan. Bunday jarayonlar ijtimoiy ongda tabiiy ravishda shakllanadigan fikrlar emas, balki tashqi markazlar tomonidan puxta ishlab chiqilgan g'oyaviy konstruksiyalar asosida shakllayotganini ko'rsatadi.

O'zbekistonlik sotsiolog olim Mansur Bekmurodovning fikrlariga ko'ra, inson ong osti tuzilmalariga maqsadli axborotlarni singdirish mexanizmlari bugungi kunda manipulyatsiyaning eng kuchli qurollaridan biriga aylangan. Takroriy axborot berish orqali inson ongida muayyan maylni shakllantirish, mavjud tasavvurlarni mustahkamlash yoki yangisini ong ostiga joylashtirish jarayoni avtomatik tarzda yuzaga keladi. Ayniqsa, inson o'zi qabul qilishga tayyor bo'lgan, ichki intilishlariga mos keluvchi axborotlarni tezroq o'zlashtirishga moyil bo'ladi. Shu sababli manipulyativ kuchlar axborotni qanday shaklda, qanday ohangda, qanday ta'sirchanlik darajasida etkazish masalasiga alohida e'tibor qaratadilar.

Mazkur jarayonlarning eng xavfli jihatlaridan biri - manipulyatsiya vositalaridan ekstremistik, aqidaparast yoki soxta diniy guruhlarining faol foydalanishidir. Bunday subyektlar avvalo inson ongiga ta'sir etish orqali uning xulq-atvori, e'tiqodi va dunyoqarashini o'zlarining maqsadlari sari yo'naltiradi. Manipulyativ ta'sir natijasida shaxsning mustaqil fikrlash imkoniyati cheklanadi, voqelikni baholash mezonlari buziladi, tanqidiy fikrlash susayadi va natijada inson o'zligidan uzoqlashib, begonalashtirilgan mafkuraviy konstruksiyalarning tashuvchisiga aylanadi. Ongni nazorat qilish jarayonida haqiqatni yashirish, yolg'onni haqiqat sifatida ko'rsatish, ma'lumotlarni biryoqlama talqin qilish, shaxs hissiyotlarini qo'rquv, aybdorlik yoki bo'ysunuvchanlik orqali boshqarish kabi usullar qo'llanadi. Shu nuqtai nazardan, globallashuv sharoitida ongni boshqarish falsafasini chuqur o'rganish, inson tafakkuri barqarorligini mustahkamlash, uning ma'naviy immunitetini kuchaytirish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining eng muhim shartlaridan biridir. Bu jarayonda mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi ta'lim tizimi, shaxsning intellektual faolligini qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit, axborot xurujlariga qarshi psixologik va ma'naviy himoya mexanizmlarini shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega.

Globallashuvning murakkab axborot maydonida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlash, uni manipulyativ ta'sirlardan himoya qilish - nafaqat falsafiy, balki ijtimoiy xavfsizlikning ham ustuvor vazifasidir. Ongni boshqarish falsafasi asosida shakllanayotgan zamonaviy konsepsiyalar esa insonning mustaqil fikrlovchi, ongli, ma'naviy barkamol shaxs sifatida rivojlanishini kafolatlashga xizmat qiladi. Globallashuvning murakkab jarayonlari inson ongiga bevosita ta'sir etuvchi yangi axborot oqimlarini yuzaga keltirdi. Ana shunday ta'sir vositalaridan biri - "ommaviy madaniyat" fenomeni bo'lib, u tashqi ko'rinishidan go'yoki erkinlik, hurfikrlilik, zamonaviylik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Ammo uning ichki mohiyati chuqur tahlil etilganda, bu hodisaning eng xavfli jihati insonning mustaqil fikrlash qobiliyatiga qaratilgan bosim ekanligi ayon bo'ladi. Mazkur madaniy

ILMIY AXBOROT

oqimning asl "yovuzligi" ham shundaki, u tafakkurning tabiiy, erkin rivojlanishiga qarshi jarayonlarni kuchaytiradi.

Bunday jarayonlar ortida yotgan asosiy maqsad - insonning fikr yuritish imkoniyatini susaytirish, uni mustaqil qaror qabul qilish salohiyatidan mahrum etish orqali ongni boshqarishning qulay mexanizmini yaratishdir. Tarix tajribasi shuni ko'rsatadiki, qurol kuchi bilan bo'ysundirilgan xalq vaqt o'tishi bilan yana ozodlik yo'liga qaytishi mumkin, chunki jismoniy kuch inson ruhini, milliy tafakkurni mag'lub eta olmaydi. Ammo ong ustidan nazorat o'rnatilsa, millatning ozodlik g'oyasi ham, tarixiy xotirasi ham asta-sekin so'nib boradi. Demak, fikrlashni yo'qotish har qanday harbiy istilodan ko'ra ancha dahshatli fojia bo'lib, u millatning butunlay izsiz yo'qolishiga olib boradigan xavfdir.

So'nggi o'n yilliklar davomida ro'y bergan mintaqaviy mojarolar, terrorizm, ekstremizm, narkoagressiya va qurol savdosi nafaqat harbiy xavf tug'dirdi, balki inson ongiga qaratilgan psixologik va mafkuraviy tahdidlarning yangi shakllarini paydo qildi. Bu jarayonlar natijasida diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm singari mafkuraviy oqimlar global miqyosga chiqib, o'zining asl buzg'unchi maqsadini endi yashirmay qo'ydi. Ularning bosh maqsadi - millatlarning ma'naviy tayanchini emirish, ruhiy barqarorlikni izdan chiqarish, odamlarni o'z ildizidan ajratishdir.

Tarixiy manbalarda ham ongga ta'sir orqali jamiyatni boshqarish usullari qadimdan mavjud bo'lganligi qayd etiladi. Masalan, miloddan avvalgi VI asrda yashagan Sun Szining dushman ruhiyatini izdan chiqarishga qaratilgan mashhur usullari aslida ongni boshqarishning ilk mafkuraviy texnologiyalaridan bo'lgan. Uning "raqibning an'alarini qadrsizlantirish", "yoshlarni kattalarga qarshi gij-gijlash", "jamiyat orasida nizo qo'zg'ash", "qadriyatlarni emirish", "ruhiy zaiflikni kuchaytirish" kabi tavsiyalari bugungi zamonaviy psixologik urushlarning asosiy tamoyillariga juda yaqin. Bugungi globallashuv davrida esa bu jarayonlar yanada takomillashdi. Endi inson ongini bevosita egallash, uning qadriyatlarini almashtirish, maqsadli axborot oqimi orqali fikrlash doirasini toraytirish uchun yanada jilolangan, ko'p qatlamli psixotexnologiyalar ishlatilmoqda. Ommaviy axborot vositalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar, vizual kontentlar, reklama va global kommunikatsiya tizimlari misli ko'rilmagan darajada keng ko'lamli axborot manipulyatsiyasi imkoniyatini yaratdi. Avvallari bir el yoki millat o'z an'analari bilan yillar davomida begona madaniy ta'sirlarga qarshi tura olgan bo'lsa, bugungi texnologik tashviqot vositalari bu tabiiy immunitetni zaiflashtirib, insonning ruhiy olamini bevosita nishonga aylantirmoqda.

XX asr aynan shu ma'noda inson ongini boshqarish texnologiyalarining tubdan o'zgargan davri bo'ldi: millionlab kishilarni bir vaqtning o'zida maqsadli targ'ibot bilan qamrab olish, jamoaviy fikrlashni boshqarish, ong osti mexanizmlarini ta'sir ostiga olish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Katta guruhlar ongini boshqarishga qodir siyosiy rejissyorlar, targ'ibot markazlari, mafkuraviy laboratoriyalar shakllandi.

Shunday qilib, ongni boshqarish falsafasi bugungi kunda insoniyatning ma'naviy xavfsizligini ta'minlash, tafakkurni manipulyatsiyaga qarshi mustahkamlash va globallashuv sharoitida barqaror intellektual rivojlanishni kafolatlashning asosiy konsepsiyalaridan biriga aylandi. Globallashuv sharoitida axborot oqimlari keskin kuchayib, inson tafakkuriga bosim ko'rsatish mexanizmlari yanada murakkablashayotgani hozirgi zamonning eng jiddiy ma'naviy-ijtimoiy muammolaridan biriga aylandi. Ba'zan beozordek ko'rinadigan reklama, turli kommunikativ xabarlar yoki zamonaviy media mahsulotlari ham aslida madaniy o'zakni emirish, milliy o'zlikni zaiflashtirishning kuchli vositasiga aylanayotgani bor haqiqat. Ana shunday sharoitda "g'oyaga qarshi g'oya bilan, mafkuraga qarshi sog'lom mafkura bilan kurashish lozim" degan tamoyilning nechog'lik dolzarb ekani yanada ravshanlashadi. Chunki bugun ong ustidan nazoratni qo'lga olishga bo'lgan har qanday urinishlarga yo'l qo'ymaslik, o'zligimizni asrash va tafakkur barqarorligini ta'minlash strategik ehtiyojga aylangan.

Frantsuz faylasufi Gi Debora o'zining mashhur "Tomosha jamiyati" asarida ana shunday texnologiyalar mohiyatini chuqur tahlil qilib bergan. Uning fikricha, hozirgi axborot makonida ongni boshqarish shunchalik kuchli vositalarga egaki, ular yordamida real hayotdan olingan tajriba, tarixiy xotira va avlodlar donoligi sun'iy ravishda "tomosha" sifatida talqin qilinib, uning o'rniga rejissyorlar tomonidan ongli tarzda konstruksiya qilingan "yangi haqiqat" singdiriladi. Bu jarayon davomida odamlar hayotiy haqiqatni emas, balki tayyorlangan illuziyani qabul qila boshlaydi. Natijada inson "hayotning o'zi tomosha", "haqiqat esa ekran ortida" degan mavhum, passiv psixologiyaga o'tadi. Debora ta'kidlaganidek, tomosha jamiyatini shakllantirish uchun, eng avvalo, madaniy asoslarni tubdan o'zgartirish, hayot va tasavvur o'rtasidagi chegaralarni ongli ravishda buzish, tomoshaning qoidalarini kundalik hayotga singdirish talab etiladi. Bu esa insonning mustaqil tafakkur qilishi uchun

zarur bo'lgan ichki tayanchlarni zaiflashtiradi. Shunday murakkab sharoitda ongni boshqarish falsafasi masalasi milliy xavfsizlikning ajralmas qismiga aylanadi. Odamlarning ruhiyatiga bevosita yoki bilvosita ta'sir o'tkazish - nafaqat siyosiy, balki ma'naviy, madaniy, axloqiy barqarorlikka ham tahdid soladi. Shu sababli globallashuv davrida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi milliy o'zlikni mustahkamlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ma'naviy immunitetni kuchaytirish, axborot oqimlarini ongli boshqarish kabi omillarni o'z ichiga olishi shart. Ayni paytda global maydondagi har qanday mafkuraviy bosim va manipulyatsiyalarni engishning yagona yo'li - ongni uyg'oq tutish, ma'naviy hushyorlikni mustahkamlash va jamiyatni intellektual jihatdan himoyalashdir. Chunki mustaqil fikrlovchi odamni boshqarib bo'lmaydi, o'zligini anglagan xalqni esa hech qanday "tomosha" adashtira olmaydi.

XULOSA

Globallashuv jarayonlari keskin faollashgan hozirgi davrda inson ongiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari nihoyatda takomillashib, ularning ko'lam ham, intensivligi ham keskin ortib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, media makonning cheksiz imkoniyatlari, reklama va virtual omillar orqali amalga oshirilayotgan ongni boshqarish strategiyalari jamiyatning ma'naviy-ruhiy barqarorligiga bevosita ta'sir etayotgan murakkab jarayondir. Bunday sharoitda inson tafakkurini himoya qilish, milliy o'zlikni mustahkamlash va fikr mustaqilligini saqlash jamiyat taraqqiyotining ustuvor vazifasiga aylanadi. Ongni boshqarish falsafasi shuni ko'rsatadiki, insonni xabardorlikdan mahrum qilish, uni mustaqil fikrlovchi subyektdan omma psixologiyasiga yo'naltirilgan obyektga aylantirish eng xavfli mafkuraviy bosim shaklidir. Tomosha jamiyati, illuziyalar orqali ongni boshqarish, manipulyativ reklama, axborot xurujlari kabi jarayonlar insonni sekin-asta haqiqiy hayotdan uzib, sun'iy konstruksiya qilingan "haqiqat"ga bog'lab qo'yadi. Bu esa fikr mustaqilligi, tafakkur barqarorligi va ma'naviy immunitetning zaiflashuviga olib keladi.

Shu bois globallashuv davrida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi, avvalo, ma'naviy hushyorlikni kuchaytirish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, axborot makonida ongli filtratsiyani shakllantirish, milliy mafkuraviy immunitetni mustahkamlash kabi strategik vazifalarni o'z ichiga oladi. Bunda ta'lim tizimi, madaniy siyosat, ma'naviy-ma'rifiy institutlar, yoshlar tarbiyasi va axborot xavfsizligi bo'yicha kompleks yondashuv hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, inson o'zligini anglagan, mustaqil fikr yurita oladigan, har qanday manipulyatsiyaga qarshi ruhiy tayanchga ega bo'lgan shaxs sifatida shakllanib borishi globallashuv bosimlaridan himoalanishning eng ishonchli kafolati hisoblanadi. Chunki ong uyg'oq bo'lsa – jamiyat barqaror, mafkuraviy himoya mustahkam, ma'naviy poydevor esa buzilmas bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., "Ўзбекистон". 1997.
2. Qahorova, S. (2023). Philosophical and theoretical teaching of amir khusrav dehlavi. Farg'ona davlat universiteti, (5), 17-17.
3. Сирбек Г., Гилье Н. Фалсафа тарихи. – Т: Шарк, 2002. – 134 б.
4. Shodiyev, J. (2021). O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy kommunikatsiya rivojlanishida raqamli transformatsiya siyosati. Academic research in educational sciences, 2(2), 409-416.
5. Shodiyev, J. J. (2020). U the question of human destiny and free in the philosophical views of omar khayyam. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 2(2), 197-202.
6. Shodiev Jahongir Jurakulovich. Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. International Engineering Journal For Research & Development 2020/4/16.
7. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.
8. Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich. Inson qadri va uning huquqlari eng oliy qadriyat: tarixiy-huquqiy meros. Ilm sarchashmalari/ Urganch – 3.2023. 19-21.
9. Shodiyev, J. J. (2023). The role of scientific thinking and mental development in improving human development and value. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 251-261.
10. Shodiyev, J. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. Innovative Development in Educational Activities, 2(7), 616-625.
11. Jurakulovich, S. J. (2023). Philosophical views of sages on human values and glorifying him. theory and analytical aspects of recent research, 2(16), 229-238.
12. Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. "О'zbekiston" НМИУ, 2011.
13. Кара-Мурза С. Манипуляция сознанием. М., "Алгоритм". 2006.
14. Йулдошев С., ва бошқалар. Янги ва энг Янги Давр Фарбий Европа фалсафаси. – Т.: Шарк, 2002. – 56 б.